



## “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN FAYODALANISH

**Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali.  
Energetika va mashinasozlik fakulteti “Matematika va informatika” kafedrasini mudiri.  
p.f.f.d. (PhD)*

**Tursinsaitov Mansurbek Yokubovich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali.  
Energetika va mashinasozlik fakulteti 7-22 MT guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish haqida so‘z boradi*

**Kalit so‘zlar:** *Informatika va axborot texnologiyalari elektron resurslar, elektron ta’lim resurslari, “Ispring”, axborot*

Hozirgi vaqtda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda, fan va texnologiyalarning taraqqiy etishi natijasida zamonaviy darsni ko‘rgazmalilik, ko‘rsatmalilik tamoyillariz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Informatika va axborot texnologiyalari ko‘p sabablarga ko‘ra favqulodda noodatiy fan hisoblanadi. Chunki bu fanni o‘qitishda o‘quv dasturidagi eng yangi, eng istiqbolli, eng dinamik va boshqa o‘ta qiziq va yangi texnologiya hamda materiallardan foydalanish kerak. Shuningdek, dars uchun o‘qituvchi va o‘quvchi ixtiyorida bo‘lgan kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun fanning o‘quv qo‘llanmalari ham g‘ayrioddiy bo‘lishi kerak.

A. Asmolov ham buni ta’kidlab: “... bizga dasturlarni kengaytirish, turli xil o‘quv vositalari zarur. Shu ma’noda turli yo‘nalishdagi elektron ta’lim resurslari (ETM) mavjud variantlar doirasini kengaytirishga yordam beradi. Bu nimani anglatadi? Bu individual dasturingiz bo‘yicha rivojlanish imkoniyati, rivojlanish «yo‘li». ETM, darsliklar singari, muayyan ta’lim sohalarida haqiqatni o‘zlashtirishning noyob madaniy vositalaridan biridir” [1].

Elektron resurslar - bu elektron ma’lumotlar (raqamlar, harflar, belgilar yoki ularning kombinatsiyasi ko‘rinishidagi ma’lumotlar), elektron dasturlar (ma’lum vazifalarni bajaradigan operatorlar yoki kichik dasturlar to‘plami, shu jumladan ma’lumotlarni qayta ishlash) yoki bitta resursda ushbu turlarning kombinatsiyasi.

"Elektron ta'lim resurslari" -atamasi kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqiladigan va ko'paytiriladigan o'quv qo'llanmalarining butun majmuasini birlashtiradi.

Elektron resurslar quyidagilarni ta’minlab beradi:

- o‘zlashtirish vaqtini qisqartiradi;



- dars tarkibi, vazifalarning aniqligi tufayli o'quv faoliyatini optimallashtiradi;
- darsda ishtirok etmagan o'quvchilarning o'tilgan mavzuni o'zlashtirmay qolib ketishlarini oldini oladi;
- xohlovchilarning rivojlanish darajasini oshirish uchun qo'shimcha materiallar beradi;
- individual tarzda moslashish, axborotni hissiy idrok etishning har xil turlari orqali motivatsiyani oshiradi;
- axborot madaniyatini shakllantirish, ta'lim jarayonini boshqarish va tuzatish imkoniyatlarini yaratish.

Ammo har bir o'qituvchining amaliy faoliyatida ko'p sonli bepul elektron ta'lim manbalariga ega bo'lishiga qaramay, tayyor resurs har doim ham o'ylangan ma'lumotni aks ettirmaydigan vaziyatlar yuzaga keladi. Masalan, o'qituvchining shu o'tilishi kerak bo'lgan mavzuga oid shaxsiy g'oyasi bo'lishi mumkin hamda uni amalga oshirish uchun oldindan ishlab chiqilgan texnik va dasturiy ta'minot, resurs mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda, albatta, bunday elektron ta'lim resursini mustaqil ravishda yaratish zarur bo'ladi hamda o'qituvchidan uni yaratish ko'nikmalari talab qilinadi.

Elektron ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri "Ispring" dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft - PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan.[2]

Power Point hamda unda joylashtirilgan iSpring dasturidan foydalanish o'quvchilarga quyidagilarga imkon beradi:

- kerakli materiallarni topishda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kreativlikni rivojlantirish;
- yangi va samarali ish uslubini namoyish etish.

So'nggi yillarda jamiyat hamda ta'lim sohasini axborotlashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish borasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, fan va texnologiyalarning rivojlanishi hamda olimlarimizning axborot texnologiyalaridan o'qitish jarayonida foydalanish borasidagi salmoqli ilmiy ishlariga qaramay, ta'limni axborotlashtirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va qo'llash mexanizmi, texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari juda dolzarb bo'lib qolmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мария Агранович. Личность в Сети: Электронные образовательные ресурсы помогают школьникам найти себя. Российская газета - Спецвыпуск № 223(5599). <https://rg.ru/2011/10/06/asmolov.html>
2. Z.R. Durdimurotovna Rasulova. Elektron ta'lim resuruslaridan foydalanib o'quv jarayonlarini takomillashtirish. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10, 449-458, <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-ta-lim-resuruslaridan-foydalanib-o-quv-jarayonlarini-takomillashtirish/viewer>
3. Ivanova A.Yu. Practical modeling. Computer experiment. Methodical instructions for the teacher: Textbook. allowance. - Tomsk: Vol. state University of Control Systems and Radioelectronics, 2005.
4. Balakina V.P. Using the Power Point program in the work of a computer science teacher. Materials of the XIX international conference «Application of new technologies in education» June 26-27, 2008.
5. Fayziev R.A., Sobirov A.A., Ziyadullaev D.Sh. Technology for creating electronic textbooks. Tutorial. - T.: IQTISODIYOT, 2019.160 p.
6. Bepalko V.P. Education and training with the participation of computers (pedagogy of the third millennium). - M.-Voronezh: Publishing house of Moscow. psycho-ped. in-that; Modek, 2012.
7. Vorobyova G.N. Using an interactive whiteboard in 5th grade mathematics lessons. Application of new technologies in education. Materials of the XIX International Conference, Troitsk, 2007. p. 100.
8. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. "Content, form, method and means of teaching "Informatics and information technologies""using media technologies. World Bulletin of Management and Law (WBML) Volume-16 November-2022,37-40. <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/1594>
9. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. "[Mechanism of the process of organization of computer and information technology lessons through media technologies](#)". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (10), 242-246. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=10&article=042>
10. Sulaymanova Dildora "FORMS OF ORGANIZATION OF LESSONS INFORMATICS AND INFORMATIONAL TECHNOLOGIES AT SCHOOLS" Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences, 2021/12/19,7-10 <https://openconference.us/index.php/ysc/article/view/3>



11. Raimkul Rakhmonkulov, Dildora Sulaymanova Bakhtiyorovna, Muzaffarov Abdurashidkhon Abdulazizovich. "THE USE OF ANALYTIC GEOMETRY IN THE DESIGN OF A STATICS PROBLEM" European Scholar Journal (ESJ) Vol.2 No. 11, November 2021, 148-151.

<https://scienceweb.uz/publication/2744>

12. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5th grade of schools (Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-997080, VOLUME 12 May 2021, 80-83)

<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/517/464>  
<https://doi.org/10.47494/mesb.2021.12>)

13. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. "USE OF MEDIA TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF COMPUTER SCIENCE". (ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. MAY, 2021- IX .

<https://khorezmscience.uz/en/site/view?id=8&page=7>

14. Д. Сулайманова. Информатика дарсларида медиатеchnологиялардан фойдаланиш юзасидан ўқувчилар билимини ташхислаш. *Academic research in educational sciences*. 2021 yil. NUU . 135-137 бетлар.

<https://cyberleninka.ru/article/n/informatika-darslarida-mEDIATEHNOLOGIYALARDAN-FOYDALANISH-YUZASIDAN-UVCHILAR-BILIMINI-tashhislash/viewer>

15. Сулайманова Д. Информатика дарсларида медиатеchnологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчилар фаоллигини ошириш. ЎзМУ хабарлари. Тошкент-2021 yil (1/4) . 168-171 бетлар.

[https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-14-2021\(Mundarija\).pdf](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-14-2021(Mundarija).pdf)

16. Sulaymanova D. "Formation of skills of using mediatechnologies in pupils". Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2021 № 4. 61-65 bet.

[file:///C:/Users/User/Downloads/14-23-PB%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/14-23-PB%20(1).pdf)

17. <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.52.25.009>

18. N. Ravshanov, D. Sulaimonova. [Model to study the technological process of separation of hard-to-separate granular mixtures and to adopt managerial decisions](#). Journal of Physics: Conference Series, 2019. P. 1-9

<https://scienceweb.uz/publication/2742>